

## ONA TILI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Ortikova Ma'suma Ergashaliyevna*  
*Namangan viloyat To'raqo'rg'on tuman*  
*6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab*  
*Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*  
*Telefon: +998943050274*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish, uning afzalliklari haqida gapirib o'tilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'ldi va barcha sohalarda, xususan, ta'lim yo'nalishida ham bir qancha ijobiy natijalarga erishib kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** AKT, mediafay, didaktik o'yinlar

Bugungi kun ta'lim jarayoni biz pedagoglar oldiga bir qancha vazifalarni qo'yadiki, bu vazifalarni sidqidildan bajarish hamda o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishmoq uchun tinimsiz izlanmog'imiz lozim bo'ladi.

Bunda o'quvchida harflarni to'g'ritanlay olish vatez yozish malakalari shakllanadi. Diktant jarayonida matnni o'qituvchi tomonidan aytib yozdirish mashqida o'quvchining yozdirilayotgan matnni to'g'ri yoza olishi va belgilangan muddatda tugata olishi nazarda tutiladi. Shunga qarab o'quvchi ishi tekshiriladi va xatolari aniqlanib baholanadi.

“So'z ketidan – so'z kelar” elektron qo'llanmasidan esa, 5-sinf “Ona tili” darslarining “Leksikologiya” bo'limida o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda foydalanish tavsiya qilinadi.

Bunday ekranda yozilgan harflardan bir va ko'p ma'noli so'zlarni yozish talab qilinadi. O'quvchilar so'zlarni yozib boradilar va kerakli ballarni yig'adilar.

Barcha sinf darsliklarida imlo morfologiya, fonetika, leksikologiya bo'limlari bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan mashq va topshiriqlarni bajarishda kompyuterdan foydalanish imkoniyati katta. Jumladan:

- 1-topshiriq. “Buloq” so'zi qatnashgan gaplar tuzing va kompyuterga kiriting.
- 2-topshiriq. “GUL” mavzusiga oid so'z birikmasini yozing
- 3-topshiriq. Kompyuterda mashq beriladi. Matndagi fikr va g'oyalarni saqlagan holda boshqa so'z-iboralar yordamida qisqa va lo'nda ifodalash, ya'ni rezyume qilish topshiriladi.

Mavzularni mustahkamlashda ham turli xildagi slaydlardan foydalanishimiz

mumkin bo'radi. Masalan, ot so'z turkumi mavzuni mastahkamlash jarayonida quyidgi slayddan foydalanish mumkin:

O'quvchilar slayd asosida berilgan topshiriqlarni bajaradilar.

6-sinfda "Yangi so'zlar", "Eskirgan so'zlar", "Iboralar", "Tasviriy ifoda", "Atamalar", "Ilmiy va kasbiy atamalar", "Shevaga xos so'zlar", "Olinma so'zlar" kabi



mavzularni o'rganishda kompyuterga avvaldan elikka yaqin yangi so'zlar kiritiladi. Jumladan: dasturchi, birja, bakalavr, litsey, kollej, monitor, sichqoncha, internet, viloyat, magistr, avtoportret, aviasyomka, aviatransport, avangard va boshqalar.

1 -topshiriq. Har bir o'quvchi belgilangan vaqt ichida yuqoridagi so'zlardan bilganlarini kompyuterga kiritadi. Eng ko'p yangi so'zlarni yozgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

2-topshiriq. Kompyuter xotirasiga kiritilgan 50 yaqin rang nomlaridan bilganlarini yozish. Misol uchun: alvon, qizil, binafsha, bug'doyrang, ko'k, qora, sariq, nimpushti, malla, moviy, moshrang va xakazo. Ko'p rang nomlarini yozgan o'quvchilar g'olib hisoblanadi.

Shuningdek, 9-sinfda ona tili darslarini tashkil qilishda elektron darslikdan quyidagicha foydalanish mumkin. Qo'llanma 9 bob, 56 ta mavzulardan tashkil topgan. Darslikdagi ayrim darslar yuzasidan fikr yuritamiz. Jumladan:

3-dars «Gap bo'laklari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash» mavzusini takrorlash jarayonida dars tashkil etilgach, o'qituvchi mavzuga oid 1,2 - topshiriqlarga ijodiy yondashgan xolda o'quvchilar bilan gap bo'laklari yuzasidan savollar asosida "Kim zukko va topqir?" o'yini tarzida suhbat o'tkazadi. Savollar elektron ko'zgu orqali ko'rsatiladi.

Adabiyot fanidan 6-9 sinflar uchun yaratilgan elektron darsliklarda esa mualliflar ijodkorlarning umrbayonlari, asarlardan berilgan parchalar matni, savol-topshiriqlar

xamda lug'atlardan iborat ma'lumotlar. Bunda mavzu yuzasidan ko'rgazmalar — rasmlar, filmlar, videotasvirlardan foydalanish dars jarayonining ma'rifiy-ma'naviy axamiyatini kuchaytirib, matnning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'tilayotgan mavzu mazmuni ham uqib o'qishga, ham ko'rib bilishga moslashgan.

8-sinf darsligidagi «Shum bola» asarini o'qigan o'quvchi bu bilan yonma- yon rasmni hamda filmni ham tomosha qiladi. Asardagi har bir vaziyat, obrazlar xatti-xarakati kurgazmalilik tufayli uning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Yoki Navoiyning «Kelmadi» g'azalida oshiqning ruhiyatini tushunish uchun o'quvchi uni faqat dunyoviy muhabbat haqida nola qilayotgan sentimental inson sifatida emas, balki qaysidir ma'noda ma'naviy kamolotga erishgan chunki faqat o'zligini tanigan insongina hakikiy sevgiga oshno bo'lishi mumkin. Bunda ilohiy ishqning ham yashirin ma'nosi borligini, dunyoda birgina biz bilgan ishq emas, mutlaq haqqa bo'lgan o'zgacha, oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lmagan mukammal ishq xam mavjudligini anglash uchun avvalo, g'azal mohiyatan tahlil qilinadi. O'quvchi to'liq ma'lumot olishi uchun jonli vosita – g'azalni ifodali, maromiga yetkazib o'qiyotgan kishi, yon tomonida g'azal matni ko'rinadi. Demak, tasavvur qildiradi olish ham o'qituvchi uchun juda muhim.

Xulosa qilib aytganda, o'quv-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning quyidagi afzalliklari bor.

- ✓ bunda o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan qusurlarini aniqlaydi;
- ✓ o'quvchining bajargan ishi bo'yicha natijasi tezda aniqlanadi;
- ✓ o'quvchi ma'ruza shaklida mavzuni eshitishdan ko'ra ko'prok tasavvurga ega bo'ladi;
- ✓ ba'zi jarayonlarni bevosita kompyuterda bajarish **kunikmasi** hosil bo'ladi;
- ✓ o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushunchalarni o'ziga tez singdiradi va uni amalga joriy etishi yengil kechadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aim.uz mega portal
2. 5-9-sinf darsliklari
3. google.uz qidiruv portali